

Oriental Journal of Education



DEVELOPING LINGUOCULTURAL COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH TO STUDENTS OF NON-PHILOLOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Dildora Shamsiddinovna Ibragimova

Associate Professor, Department of Foreign Languages

Samarkand State University of Architecture and Construction

Email: dildoraibragimova1981@gmail.com

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: English, linguocultural competence, non-philological education, intercultural communication, competency-based approach.

Received: 19.11.25

Accepted: 20.11.25

Published: 21.11.25

Abstract: This article discusses the role and importance of the formation of linguocultural competence in teaching English to students of non-philological higher education institutions. The fact that in the era of globalization, English has become not only a communicative tool, but also the main key to intercultural communication is scientifically substantiated. Also, effective methods and didactic approaches used in the development of linguocultural competence are analyzed.

NOFILOLOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIGA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA LINGVOMADANIY KOMPETENTSIYANI SHAKLLANTIRISH

Dildora Shamsiddinovna Ibragimova

Samarqand davlat arxitektura – qurilish universiteti

Xorijiy tillar kafedrasida dotsenti

dildoraibragimova1981@gmail.com

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ingliz tili, lingvomadaniy kompetentsiya, nofilologik ta'lim, madaniyatlararo muloqot, kompetensiyaviy yondashuv.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilini nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalariga o'rgatishda lingvomadaniy kompetentsiyani shakllantirishning o'рни va ahamiyati yoritiladi. Globallashuv davrida ingliz tili nafaqat kommunikativ vosita, balki madaniyatlararo muloqotning asosiy kalitiga aylanganligi ilmiy asoslanadi. Shuningdek, lingvomadaniy kompetentsiyani rivojlantirishda qo'llaniladigan samarali usullar va didaktik yondashuvlar tahlil qilinadi.

ФОРМИРОВАНИЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ НЕПРОФИЛЬНЫХ (НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ) ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Дилдора Шамсиддиновна Ибрагимова

Доцент кафедры иностранных языков

Самаркандский государственный архитектурно-строительный университет

Email: dildoraibragimova1981@gmail.com

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: английский язык, лингвокультурная компетенция, нефилологическое образование, межкультурная коммуникация, компетентностный подход.	Аннотация: В данной статье рассматриваются роль и значение формирования лингвокультурной компетенции в обучении английскому языку студентов нефилологических вузов. Научно обосновано, что в эпоху глобализации английский язык стал не только средством коммуникации, но и основным средством межкультурной коммуникации. Анализируются эффективные методы и дидактические подходы, применяемые в развитии лингвокультурной компетенции.
--	--

Kirish. Bugungi kunda ingliz tili jahon ilm-fani, biznesi va texnologiyasining asosiy vositasiga aylangan. Shu sababli O'zbekiston oliy ta'lim tizimida, xususan, nofilologik yo'nalishlarda ta'lim olayotgan talabalarni ingliz tilida erkin muloqot qila olishga tayyorlash zaruriyati kuchaymoqda. Bu jarayonda tilni o'rgatish faqat grammatik bilimlarni singdirish emas, balki madaniyatlararo muloqotga tayyorlashni ham o'z ichiga oladi. Lingvomadaniy kompetentsiya tushunchasi Lingvomadaniy kompetentsiya – bu nafaqat lingvistik birliklarni bilish, balki ular bilan bog'liq bo'lgan madaniy mazmunni anglash va to'g'ri qo'llash ko'nikmasidir. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- lingvistik bilimlar (so'z boyligi, grammatik qoidalar, talaffuz);
- madaniy bilimlar (an'analar, urf-odatlar, madaniy qadriyatlar);
- kommunikativ strategiyalar (turli vaziyatlarda muloqotni moslashtira olish).

Nofilologik ta'limda lingvomadaniy kompetentsiyaning ahamiyati va dolzarbligi nofilologik yo'nalish talabalarining kasbiy faoliyati ko'pincha xalqaro hamkorlik, ilmiy izlanishlar va xorijiy hamkasblar bilan muloqotni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ingliz tilida erkin muloqot qilish jarayonida madaniyatlararo tushunmovchiliklarning oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Lingvomadaniy kompetentsiya aynan shu maqsadga xizmat qiladi. O'qitish metodlari va vositalari lingvomadaniy kompetentsiyani shakllantirish uchun quyidagi metod va vositalar samarali hisoblanadi:

1. Autentik materiallardan foydalanish – ingliz tilidagi original matnlar, filmlar, qo‘shiqlar, podkastlar va turli multimedia resurslarini darslarda qo‘llash talabalarni til va madaniyat muhitiga yaqinlashtiradi.

2. Interfaol metodlarni joriy etish – rol o‘yinlari, “debate” (munozara), “case study” (amaliy vaziyatlar tahlili) kabi faol usullar talabalarda madaniy xususiyatlarni chuqur anglashga yordam beradi.

3. Taqqoslash metodidan foydalanish – ingliz va o‘zbek madaniyatidagi urf-odatlar, an‘analari, tilda qo‘llaniladigan metafora va idiomalarni qiyoslash talabalarni o‘z madaniyatini anglash bilan birga, boshqa madaniyatni hurmat qilishga o‘rgatadi.

4. Loyihaviy ishlar – talabalarga turli mavzularda (masalan, “O‘zbekiston va Buyuk Britaniya ta’lim tizimi”, “Milliy bayramlar taqqoslanishi”) kichik tadqiqot va taqdimotlar tayyorlash topshirilishi ularning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

5. Axborot texnologiyalaridan foydalanish – onlayn ta’lim platformalari (Coursera, BBC Learning English, TED Talks) orqali talabalar ingliz tilida turli madaniy kontekstlarda bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

6. “Til + madaniyat” integratsiyasi – har bir mavzuni nafaqat lingvistik nuqtai nazardan, balki madaniy mazmun bilan boyitib o‘rgatish talabalarni real kommunikativ vaziyatlarga tayyorlaydi.

Masalan, ingliz tilidagi “tea time” tushunchasi oddiygina choy ichish odati emas, balki ingliz madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Talabalarga bu kabi real hayotiy madaniy fenomenlarni o‘rgatish ularning tilni chuqurroq anglashlariga yordam beradi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish lingvomadaniy kompetentsiyani rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, autentik video materiallar, ingliz tilidagi filmlar, madaniy loyihalar va xalqaro onlayn muloqot platformalari orqali talabalar ingliz tili muhitiga yaqinlashadi. Bunday yondashuvlar ularning tilni tabiiy kontekstda qo‘llash ko‘nikmalarini kuchaytiradi.

O‘qitish jarayonida kommunikativ metod, CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi, interaktiv o‘yinlar va loyiha asosidagi ta’lim usullari no filologik yo‘nalish talabalari uchun ayniqsa samarali hisoblanadi. Chunki bu usullar tilni faqat o‘rganish emas, balki amalda qo‘llash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shamsiddinovna I. D. Teaching Foreign Languages in a Non-Linguistic University: Challenges and Strategies //Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521). – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 259-262.
2. Shamsiddinovna I. D. English for specific purposes //The journal of contemporary issues in business and government. – 2021. – T. 27. – №. 5. – C. 754-758.

3. Zamaletdinov R. R. et al. Linguo-propaedeutics of ethnic conflicts as a basis for stability in complex polyethnic regions //Asian Social Science. – 2014. – T. 10. – №. 20. – C. 164.
4. Shamsiddinovna I. D. Borrowings of Turkic words and derivations in English language//Humanities and Social Sciences in Europe: Achievements and Perspectives. – 2014.
5. Shamsiddinovna I. D. Discourse As A LinguisticAspect For Communication //ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnal.